

**Qo'qon univetsiteti Andijon filiali  
“Pedagogika, psixologiya va  
filologiya”PHD Salahidinova Holida  
taqrizi ostida**

**Toshtemirova Nigora Ibroximovna**  
Qo'qon universiteti Andijon filiali  
psixologiya  
fani o'qituvchisi, Andijon davlat  
universiteti tayanch doktoranti.  
O'zbekiston  
[nigoratoshtemirova48@gmail.com](mailto:nigoratoshtemirova48@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0003-5496-1654

---

## **МАКТАБ О‘QUVCHILARINING OILAVIY MUNOSABATLAR TO‘G‘RISIDAGI IJTIMOIY TASAVVURLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining oilaviy munosabatlar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda umumta’lim maktab o‘quvchilarining oilaviy qadriyatlar, ota-onas va farzand o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘lgan qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh o‘sib borishi bilan ushbu tasavvurlarning qanday o‘zgarishi va psixofiziologik holatlar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari maktab o‘quvchilarining oilaviy ijtimoiy tasavvurlariga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga hamda ularning ijtimoiy moslashuvi jarayonini tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy tasavvurlar, oilaviy munosabatlar ,ota-onas , maktab o‘quvchilar, ijtimoiy omillar, umumta’lim maktabi.

### **SOCIAL IDEAS OF SCHOOLCHILDREN ABOUT FAMILY RELATIONSHIPS**

**Annotation:** This article analyzes schoolchildren in terms of factors affecting the formation of social perceptions of family relationships. The study analyzes the views of general education schoolchildren on family values, the relationship between parent and child. It is also studied how these perceptions change as age progresses and are related to psychophysiological conditions. The results of the study serve to identify factors that affect the family social imagination of schoolchildren, as well as to understand the process of their social adaptation.

**Keywords:** social perceptions, family relationships ,parents , schoolchildren, social factors, general education school.

### **СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ О СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ**

**Аннотация:** В данной статье будет проведен анализ с точки зрения факторов, влияющих на формирование у школьников социальных представлений о семейных отношениях. В исследовании анализируются взгляды учащихся общеобразовательных школ на семейные ценности, взаимоотношения родителей и ребенка. Также исследуется, как эти представления меняются с возрастом и связаны с психофизиологическими состояниями. Результаты исследования служат для выявления факторов, влияющих на семейное социальное восприятие школьников, а также для понимания процесса их социальной адаптации.

**Ключевые слова:** социальное восприятие, семейные отношения ,воспитание детей , школьники, социальные факторы, общеобразовательная школа.

---

## **KIRISH**

Oila - har bir shaxsda bolaligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istiklaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatları va ma'naviy merosi ravnaqini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui hisoblanadi. Ota-onsa munosabatlarida namoyon bo'luvchi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar oilada o'zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi. Oiladagi ushbu ijtimoiy jarayon yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy turmush haqidagi tasavvurlari, nuqtayi nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari va ularga amaliyotda rioya etishning to'g'ri yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi. Tarixiy ma'lumotlar oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asarlarda, muqaddas diniy manbalarda, o'zbek xalqining og'zaki ijod durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlari asarlarida sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan odob-axloq qoidalari, me'yorlari, insoniy fazilatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlodda oilaviy munosabatlar haqida to'g'ri tasavvurni shakllantirish, ajdoddalar yetib kelayotgan oilaviy an'analarga, qadriyatlarga munosib javob qaytarish ko'nikmalarini vujudga keltirish orqali, hozirgi kun uchun muhim muammo sanalgan oilaviy ajrimlarning oldini olish mumkin, degan xulosaga kelish o'rindir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qaerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman. Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman"<sup>1</sup> deb ta'kidlagani bejiz emas.

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi - farzand ko'rish orqali avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqiyotini ta'minlashdan iboratdir.

## **MATERIAL VA USLUBLAR**

Respublikamizda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimi takomillashtirildi, o'quvchilarga sifatli ta'lim berish, ular egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalarning, bilimlarni baholashning me'yoriy asoslari yaratildi, moddiy texnika bazasi rivojlantirildi. "Biz uchun o'z dolzarbliyi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan muhim masalalardan biri bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasbhunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga

---

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>.

ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasi”<sup>2</sup> – ustuvor etib belgilangan. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida oilaviy munosabatlar haqida tasavvurni shakllantirishda jins farqlarini hamda oilaviy muhitning ta’sirini aniqlash imkoniyatlari kengayadi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda, barkamol avlodda oila, oilaviy munosabatlar haqida to‘g‘ri, ijobjiy tasavvurlarni shakllantirish, ularda oilaga hurmat, otanonaga ehtirom kabi sifatlarni tarbiyalash uchun ularning oila haqidagi fikrlarini o‘rganish, tasavvur tizimini oilaviy munosabatlarga to‘g‘ri yo‘naltirish orqali kelajakda mustahkam oila va baxtli turmush tarziga ruhan, ma’nан va jismonan tayyor shaxslar qilib yetishtirish mumkin.

Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlab, ota-onalarda o‘ziga hos faoliyekni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta’siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya’ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o‘z umri davomiyligini kurish holati ro‘y beradi.

Oila va oila ichidagi munosabatlar muammolari doimo dolzarb bo‘lib kelgan va tadqiqotchilarda qiziqish uyg‘otgan. Ammo, ehtimol, so‘nggi yillarda zamonaviy oilaning inqirozli holati bilan bog‘liq holda oilaviy hayot masalalariga alohida qiziqish paydo bo‘ldi. Tadqiqotlarning aksariyati oila hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Farzand tarbiyasi, shaxs kamoloti, kattalar va bolalar farovonligi bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni oilaga tayanmasdan hal qilib bo‘lmaydi. Bola shaxsini shakllantirishda oilaning fundamental ahamiyati va ajralmasligi foydasiga ko‘plab faktlar aniqlangan. Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra (V. M. Tseluiko, A. I. Zaxarov, G. G. Filippova va boshqalar), oila o‘zining an’anaviy funksiyalarini yo‘qotib, hissiy aloqa institutiga, o‘ziga xos “psixologik panoh” ga aylanadi.

Oila ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Oilaning tabiiy asosini oila ichidagi munosabatlar tashkil etadi, ular ma’lum ma’noda birlamchi hisoblanadi. Biroq, bolaning nafaqat kattalarni, balki tengdoshlarini ham o‘z ichiga olgan ijtimoiy muhitini e’tiborsiz qoldirmaslik kerak. Hozirgi vaqtida psixologlarning aksariyati (V.M.Ivanova, S.V.Kovalev, V.K.Katirlo, I.V.Grebennikov va boshqalar) bolaning aqliy rivojlanishida tengdoshlarining ahamiyatini e’tirof etadilar. Tengdoshning bola hayotidagi ahamiyati egotsentrizmni engish chegarasidan ancha uzoqlashdi va uning rivojlanishining eng xilma-xil sohalariga tarqaldi. Shu munosabat bilan ko‘plab tadqiqotchilar (E.G.Eydemiller, V.I.Bezlyudnaya, V.M.Ivanova, A.I.Ostrouxova, A.S.Spivakovskaya, E.Erikson, E.Bern va boshqalar) bolaning xulq-atvori oila ichidagi munosabatlar va uning xususiyatlarini mustahkamlaydi, degan xulosaga kelishdi. boshqalar bilan keyingi aloqalarida namuna bo‘lib, bolaning ijtimoiy mavqeiga sezilarli darajada ta’sir qiladi, bu esa bolalar munosabatlarining xarakterini belgilaydi. Bu masala J. Bruner, M. Yappov, K. Zan-Veksler, E. O. kabi taniqli xorijiy va rus olimlar Smirnova, I.A. Zaysina, T.V. Guskova maxalliy olimlarimizdan G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, N.S.Safaev, B.M.Umarov, M.M.Mamatov, X.M.Alimov, va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Shunday qilib, oila ichidagi munosabatlarning nafaqat bolaning umumiyy hissiy-ruhiy holati va rivojlanishiga, balki birinchi navbatda bolaning tengdoshlari guruhidagi ijtimoiy mavqeiga ta’sirini o‘rganish zarurati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston. 2017. B. 103.

V.M.Karimova (1987, 1994) o‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o‘zbeklarning oilaviy psixologiyasining o‘ziga xos tomonlari haqida salmoqli tadqiqot ishlarini olib borgan. Muallif tadqiqotlari davomida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, islom dinining muqaddas manbalarida, sharq mutafakkirlari asarlarida, taniqli pedagog va psixolog olimlar asarlarida nikoh va oila, oilaviy hayot muammolariga doir materiallarni izchil o‘rganib, psixologik tahlillari asosida bir qator ilmiy g‘oyalarni ilgari surgan.

Muallifning fikricha, oilaviy-ijtimoy tasavvurlar murakkab va ko‘p komponentli psixologik tizimlar bo‘lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatları, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi.

Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o‘zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar, ta’lim-tarbiya, oila muhiti, milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar har bir oila a’zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta’minlaydi.

V.M.Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o‘zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi, ya’ni oilaning katta yoki kichikligi, to‘liq yoki noto‘liqligi, undagi rollar, jinsiy o‘zaro munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterini belgilashi va shaxsiy ijtimoiy ustanovkalar yo‘nalishida aks etishi aniqlangan.

Oiladagi o‘zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differensiatsiyasi o‘zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma’naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an’analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog‘liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo‘lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o‘rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko‘rsatib o‘tgan.

Biz tomonidan olib borilgan tadqiqotda “Oila rasmi” proyektiv metodikasi orqali, bolaning shaxslararo munosabatlar hamda uning oilaviy munosabatlarni idrok qilish sohasini tadqiq qilishga harakat qildik.

Biz maqolada Eston psixologi G.Xomentaukas tomonidan ishlab chiqilgan «Oila rasmi» testi orqali bolaning shaxslararo munosabatlar hamda uning oilaviy munosabatlarni idrok qilish sohasini tadqiq qilishga harakat qildik.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotimizda jami 108 nafar o‘s米尔 yoshdagi o‘quvchilar ishtirok etgan. Sinaluvchilarining yoshga ko‘ra 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarni tashkil etgan. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotda respondnlarning 29 nafari 7 yoshni, 17 nafari 8 yoshni, 16 nafari 9 yoshni, 23 nafari 10 yoshni, 23 nafari 11 yoshni tashkil etdi.

### Tavsiflovchi statistika

1-jadval

Ko‘rsatkichla	N	Minimal	Maksimal qiymat	O‘rta cha	Standart og‘ish	Assimetriya	Eksess
---------------	---	---------	-----------------	-----------	-----------------	-------------	--------

<b>r</b>		<b>qiymat</b>		<b>qiymat</b>			
<b>Onaga bo'lgan munosabat</b>	108	6,00	12,00	8,5926	1,66344	,698	-,342
<b>Otaga bo'lgan munosabat</b>	108	3,00	11,00	7,5278	2,08447	-,207	-,526
<b>Ota-onaga, oilaviy juftga bo'lgan munosabat</b>	108	,00	9,00	5,8981	1,79792	-1,142	1,630
<b>Aka-ukaga, opasingilga bo'lgan munosabat</b>	108	2,00	8,00	5,3796	1,15781	-,198	-,524
<b>Buvi-buvaga bo'lgan munosabat</b>	108	,00	8,00	4,2407	1,53386	-,621	1,330
<b>Do'stga bo'lgan munosabat</b>	108	,00	7,00	4,3333	1,60023	-,897	,846
<b>O'qituvchiga bo'lgan munosabat</b>	108	,00	8,00	3,7870	1,73502	,007	-,177
<b>Qiziquvchanlik darajasi</b>	108	2,00	10,00	7,5463	1,83621	-1,104	1,159
<b>Hukmronlikka intilish</b>	108	1,00	9,00	5,3426	1,78342	-,633	,084
<b>Muloqotchanlik</b>	108	1,00	7,00	4,6667	1,21517	-,509	,157
<b>O'zini chetga tortish</b>	108	1,00	11,00	3,4167	1,40842	2,024	8,281
<b>Xulq-atvorning ijtimoiy o'xhashlik darajasi</b>	108	2,00	7,00	3,6019	1,02255	,494	1,473

Tadqiqotimiz davomida ma'lum bo'lishicha, onaga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 6.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 12.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 8,5926 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,66344ni tashkil etdi.  $8,5926 \pm 1,66344$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=0,698$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=-0,342$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Otaga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 3.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 11.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 7,5278 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 2,08447 ni tashkil etdi.  $7,5278 \pm 2,08447$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-0,207$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=-0,526$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ota-onaga, oilaviy juftga

bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 0.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 9.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 5,8981 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,79792 ni tashkil etdi.  $5,8981 \pm 1,79792$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-1,142$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=1,630$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Aka-ukaga, opa-singilga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 2.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 8.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 5,3796 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,15781ni tashkil etdi.  $5,3796 \pm 1,15781$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-1,198$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=-0,524$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Buvi-buvaga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 0.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 8.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 4,2407 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,53386 ni tashkil etdi.  $4,2407 \pm 1,53386$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-0,621$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=1,330$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Do'stga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 0.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 7.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 4,3333 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,60023ni tashkil etdi.  $4,3333 \pm 1,60023$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-0,897$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=0,846$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchiga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 0.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 8.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 3,7870ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,73502 ni tashkil etdi.  $3,7870 \pm 1,73502$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=0,007$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=-0,177$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Qiziquvchanlik daroji shkalasi bo'yicha minimal qiymat 2.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 10.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 7,5463ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,83621ni tashkil etdi.  $7,5463 \pm 1,83621$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-1,104$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=1,159$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Hukmronlikka intilish shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 9.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 5,3426ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,78342ni tashkil etdi.  $5,3426 \pm 1,78342$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-0,633$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=0,084$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Muloqotchanlik shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 7.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 4,6667 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,21517 ni tashkil etdi.  $4,6667 \pm 1,21517$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=-0,509$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=0,157$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. O'zini chetga tortish shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 11.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 3,4167 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,40842 ni tashkil etdi.  $3,4167 \pm 1,40842$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=2,024$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=8,281$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Xulq-atvorning ijtimoiy o'xshashlik daroji shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1.00 ballni, maksimal qiymat ko'rsatkichi 11.00 ballni, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 3,6019 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,02255ni tashkil etdi.  $3,6019 \pm 1,02255$ . Assimetriya ko'rsatkichi ( $A=0,494$ )ni, eksess ko'rsatkichi ( $E=1,473$ )ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Maktab o'quvchilarining oila haqidagi g'oyalarini shakllantirish jarayonini o'rganish E.K. Vasileva, N.I. Demidova, S.I. Ochlik, A.G. Xarchevlarning bir qator asarlarida o'z aksini topgan.. Ushbu olimlarning ishlarida bu g'oyalar noaniqlik va to'liqlik, nomuvofiqlik va shubhalilik bilan ajralib turishi, bu yoshdagи bolalar xayolparastlik qilishlari va ko'pincha oilaviy munosabatlar haqida noto'g'ri fikrlarga ega bo'lishlari aniqlangan.

Oilada bolaning farovonligi, sog'lom shaxsni tarbiyalash uchun sharoit yaratish oilaning eng muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun bolalar dunyoqarashining quyidagi muhim xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1.Bolaning o'zi oilani va undagi o'zini anglaydi, uning xatti-harakatlarini, oilaga va o'ziga bo'lgan munosabatini belgilaydi, u shunchaki ta'llim mahsuli emas. Ma'lum darajada, bola o'zini tarbiyalovchi hisoblanadi.

2.Bolalar o'zlarining cheklangan tajribasi, o'ziga xos fikrlashlari tufayli atrofida sodir bo'layotgan narsalarni boshqacha qabul qiladilar va baholaydilar. Ularning xulq-atvorini, his-

tuyg‘ularini, kechinmalarini tushunish va dunyoga faqat ularning ko‘zлari bilan qarash orqali yordam berish mumkin.

3.Bolalarga nafaqat bizning qasddan ta’sir qilishimiz, balki ota-onalarning xatti-harakatlarining barcha xususiyatlari teng yoki hatto ko‘proq darajada ta’sir qiladi.

Oila, shuningdek, quyidagi g‘oyalarga asoslangan oilaviy tarbiya tamoyillari tizimini qurishi kerak :

- bolalar yaxshi niyat, sevgi va baxt muhitida o‘sishi va tarbiyalanishi kerak; - ota-onalar o‘z farzandini qanday bo‘lsa, shunday tushunishi va qabul qilishi, undagi eng yaxshi fazilatlarni rivojlantirishga hissa qo‘sishi kerak;
- tarbiyaviy ta’sirlar yosh, jins va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda qurilishi kerak;
- shaxsga samimiyligi, chuqur hurmat va unga bo‘lgan yuksak talabning dialektik birligi oilaviy tarbiyaning asosi bo‘lishi kerak; - ota-onalarning o‘zлari shaxsi
- bolalar uchun ideal namuna;
- ta’lim bolaning ijobiy resurslariga asoslangan bo‘lishi kerak;
- optimizm oiladagi bolalar bilan muloqot qilish uslubi va ohangining asosidir.

Shunday qilib, oila bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga eng muhim ta’sir ko‘rsatadi, bu ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin.

Hamma narsa oilaning turiga, unda to‘g‘ri tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan muayyan shart-sharoitlarning mavjudligi yoki yo‘qligiga, ota-ona va bola munosabatlarning tabiatiga bog‘liq.Bu hissiy jihatdan jozibali kattalar - ota-onalarga yo‘naltirilganlik bolaning oila haqidagi g‘oyalarning zarur mazmunini o‘zlashtirishiga hissa qo‘sadi; oiladagi xulq-atvor namunalarini takrorlashga intilishda rag‘batga aylanadi.

Bularning barchasini hisobga olgan holda, biz yosh o‘quvchilarda oila haqidagi g‘oyalarni shakllantirish tamoyillarini shakllantiramiz:

1)Pozitivizm tamoyili ijobiy misollarda oilaning jozibali g‘oyasini shakllantirishda amalga oshiriladi.

2)Gumanizm tamoyili ota-onalar ham, bolalar ham oila haqidagi g‘oyalarni shakllantirish jarayonida ishtirok etganda va ularga his-tuyg‘ular va fikrlarning namoyon bo‘lishida teng ravishda erkinlik va mustaqillik berilganda, bola bilan muloqot va o‘zaro munosabatlarning maqbul modelini tanlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu tamoyilni qo‘llash bolada oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va uning kelajakdagi oilasi qiyofasini aniqlashtirishni anglatadi.

3)Faoliyat tamoyili ota-onalarning oila haqidagi tushunchalarini faoliyat asosida etkazishni o‘z ichiga oladi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida maktabgacha tarbiyachining oila haqidagi g‘oyalari aniqlashtiriladi.

4)Yaxlitlik prinsipi bola atrofidagi dunyoni va undagi bunday hodisani oila sifatida yaxlit idrok etishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, bu bolaning oila dunyosi bilan birlik darajasini ko‘rsatishga yordam beradi.

## XULOSA

Oila haqidagi g‘oyalarni shakllantirishda o‘qituvchilar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

1.Pedagogik ta’lim doirasida birgalikda tasdiqlangan sa’y-harakatlar bilan bolalarda oila haqida aniq g‘oyalarni shakllantirish va shu asosda - oilaviy munosabatlar bo‘yicha o‘zlarining ijobiy pozitsiyasini shakllantirish;

2.Bolalarda oila dunyosini o‘zlashtirishda ota-onalari bilan birgalikda harakat qilish istagining barcha turlarini ko‘rsatish;

3.Bolalarni o‘qituvchilar va ota-onalarning yordami bilan oila tajribasini tushunish uchun harakat qilish usullarini o‘rgatish.

Hozirgi vaqtida oilaning o‘zi tarbiyalash vositalari bilan bolalarni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlashning an‘anaviy va tabiiy mexanizmini sezilarli darajada buzish holatlari mavjud. Bolaning shaxsiy rivojlanishiga, uning ijtimoiy hayot me’yorlari, shu jumladan oilaviy

munosabatlar haqidagi g'oyalarini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar orasida, birinchi navbatda, oila madaniyatining yo'qolishi va ota-onalarning xattiharakatlarining yo'qolishi (bu ota yoki onaga bog'liq emas). Shu sababli, maktab o'quvchilarining oila haqidagi g'oyalarini shakllantirishga ota-onalarning ongli ta'siri masalasi ayniqsa dolzarbdir.

Zamonaviy jamiyatning farovonligi faqat an'anaviy qadriyatlarni tiklash, shu jumladan oilaviy turmush tarzini, oilaga hurmatli munosabatni targ'ib qilish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Maktab o'quvchilarida yosh xusususiyatiga, ijtimoiy ahvoliga va oilaviy turmush tarziga ko'ra oila haqida tasavvurlar farq qilib, bu ularning individual-psixologik xususiyatlarida, xulq-atvorida, kognitiv sohasida va shaxslararo munosabatlarda yuzaga chiqadi. Turli sinf o'quvchilarida oilaviy munosabatlar haqida tasavvurlar xilma-xillik kasb etadi degan xulosaga kelish mumkin.

- Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga hos faollikni ham yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin .
- Oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini berishi mumkin deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanaligan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni.
2. "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PQ-4602-son qarori.
3. Шоумаров Ф.Б. Оила психологияси: Академик лицей ва касбхунар коллежлари ўқувчилари учун /Ф.Б. Шоумаров таҳрири остида. – Т.: "Шарқ", 2000. – Б. 146-152.
4. М.Файзиева, А.Жабборов. «Оилавий муносабатлар психологияси». «Янги аср авлоди», 2007 йил.
5. Носкова М.В. Социально-психологические особенности родительско-детских отношений в неполных отцовских семьях. Диссертация и автореферат на соискание учёной степени кандидата психологических наук. – Москва, 2010.
6. Кильдишова, П.Е., Валеева Р.А. К вопросу о формировании у младших школьников ценостного отношения к семье // Современные проблемы науки и образования. – 2015.
7. Эйдемиллер Э.Г., Добряков И.В., Никольская И.М. Семейный диагноз и семейная психотерапия. Учебное пособие для врачей и психологов. – СПб.: Речь, 2003. - 336 с.
8. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкас В. Ю. Психология и психотерапия семьи. 4 изд. – СПб.: Питер, 2008. – 672 с.